
Teri allergodermatozlarini davolashda yangi tabiiy vosita yaratildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti, O’simlik moddalari kimyosi instituti hamda Farmatsevtika tarmog’ini rivojlantirish agentligi Vaksina va zardoblar instituti xodimlari hamkorligida teri allergodermatozlarini davolashda ishlatiladigan yangi mahalliy uch bo’lakli qoraqiz o’tining quyuq hamda qizil miya ildizi quruq ekstraktlarining qo’shma 1:1 nisbatdagi yangi 4% “Dermaglibid” surtma (maz) dori vositasi yaratilib, klinik oldi sinovlari o’tkazildi.



Hozirgi kunda ushbu dori vositasi haqidagi kerakli hujjatlar vakolatli organga topshirilgan va ekspertiza jarayonlaridan o’tkazilmoqda.

Ushbu surtma vostasining hozircha analogi yo’q, ta’sir qiluvchi faol moddasi va qo’shiladigan qo’shimchasi mahalliy xomashyolar asosida yaratilgan.

Mazkur dori vositasi uchun yurtimizda xomashyo bazasi yetarli, zaharlililigi kam, tabiiy, boshqa antigistaminlarga qaraganda allergodermatozlarni davolashda samarali ta’sir ko’rsatadi.